

## Yashil Iqtisodiyot Va Ekologik Ong

**Mustafoyeva Sevinch Shirinqul qizi**

Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi.

O'zbekiston Milliy Universiteti

**Annotatsiya:** 2025-yil "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili deb e'lon qilinganligi asosida olib borilayotgan ekologik islohotlar, aholining ekologik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tashabbuslar yoritiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yashil iqtisodiyotga o'tishdagi muammo va imkoniyatlar ham tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Yashil iqtisodiyot, ekologik ong, ekologik ta'lim, O'zbekiston tajribasi, Yashil texnologiyalar, eko-tarbiya ilovasi ekologik madaniyat, qayta tiklanuvchi energiya.

**Annotation:** The article covers ecological reforms carried out in connection with the declaration of 2025 as the "Year of Environmental Protection and Green Economy," as well as initiatives aimed at shaping ecological culture. It also analyzes the challenges and opportunities of transitioning to a green economy in developing countries.

**Keywords:** Green economy, environmental awareness, ecological education, Uzbekistan's experience, green technologies, Eco-tarbiya app, ecological culture, renewable energy.


**Аннотация:** В статье освещаются экологические реформы, проводимые в связи с объявлением 2025 года «Годом охраны окружающей среды и зеленой экономики», а также инициативы, направленные на формирование экологической культуры. Также анализируются проблемы и возможности перехода к зеленой экономике в развивающихся странах.

**Ключевые слова:** Зелёная экономика, экологическое сознание, экологическое образование, опыт Узбекистана, зелёные технологии, приложение Эко-тарбия, экологическая культура, возобновляемая энергия.

**KIRISH.** So'nggi o'n yillikda insoniyat oldida turgan eng muhim global chaqiriqlardan biri bu – ekologik inqiroz va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlaridir. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning chegaralanganligi, atmosfera ifloslanishi va biologik xilma-xillikning kamayishi kabi muammolar dunyo hamjamiyatini ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan iqtisodiy modelga o'tishga majbur qilmoqda. Bu model – yashil iqtisodiyot deb ataladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyotni "odamlar hayot sifatini pasaytirmasdan, ekologik xavf-xatarlarga va resurs tanqisligiga e'tibor qaratgan holda iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi iqtisodiyot" deb ta'riflaydi (UNEP, 2011). [1:9]

2025-yilning O'zbekistonda "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot" yili deb e'lon qilinishi mamlakatda ekologik barqarorlik yo'lidagi islohotlarga kuchli siyosiy iroda va strategik yondashuv mavjudligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatda olib borilayotgan ekologik siyosat, xususan "Yashil makon" umumxalq loyihasi, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish, ekologik ta'lim va fuqarolarning ekologik ongini shakllantirish borasidagi sa'y-harakatlar bu yo'nalishdagi ijobiy natijalarning muhim ko'rsatkichidir. Shu bilan birga, rivojlanayotgan davlatlar – jumladan O'zbekiston uchun yashil iqtisodiyotga o'tishda qator to'siqlar mavjud: moliyaviy resurslarning yetishmasligi, texnologik asoratlar, ekologik innovatsiyalarni joriy etishdagi byurokratik to'siqlar va aholining ekologik madaniyati yetarlicha shakllanmaganligi shular jumlasidandir. Mazkur maqola ana shu imkoniyat va muammolarni tahlil qilish, O'zbekiston tajribasida yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarni ilmiy jihatdan baholash va xalqaro tajriba bilan solishtirishni maqsad qiladi. Maqolaning maqsadi – O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirish jarayonini tahlil qilish, aholining ekologik ongini oshirishga




qaratilgan tashabbuslarni baholash hamda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun samarali strategiyalarni asoslashdan iborat. Ilmiy tahlillar asosida O'zbekiston tajribasining o'ziga xos jihatlari aniqlanadi va istiqbolli yo'nalishlar bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR:** Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi 2008-yildagi global moliyaviy inqirozdan so'ng BMT tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u barqaror rivojlanishga, ekologik muvozanatga va ijtimoiy adolatga erishishga qaratilgan. A. V. Bobylev (2013) yashil iqtisodiyot modelini an'anaviy iqtisodiyotdan tubdan farq qiluvchi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga asoslangan tizim sifatida tavsiflaydi. [1:10] Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda yashil iqtisodiyotga o'tishda asosiy muammolar – texnologik yetishmovchilik, moliyaviy vositalarning cheklanganligi va ekologik ong darajasining pastligidir. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi bugungi kunda global miqyosda ekologik barqarorlik, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy taraqqiyotni uyg'unlashtirish yo'lida muhim model sifatida qaralayapti. Bu tushuncha ilk bor BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) tomonidan 2008-yilda taqdim etilgan bo'lib, o'shandan buyon xalqaro miqyosda ekologik siyosat, sanoat modernizatsiyasi va energiya tejankor texnologiyalarni joriy etishning asosiy yo'nalishiga aylangan. [2]

Mahalliy olimlardan I.Karimov (2020), G.Xasanov (2022), N.Mirzayev (2021) kabi tadqiqotchilar o'z ishlarida O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishda resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik ongni yuksaltirish muhimligini asoslab berishgan. Ayniqsa, G.Xasanovning "Barqaror rivojlanishda ekologik madaniyatning o'rni" (2022) nomli maqolasida ekologik tarbiyaning yoshlar ongida qanday shakllanishi kerakligi aniq tavsiyalar asosida yoritilgan. Xalqaro ekspertlar, xususan Jozef Stiglits (2009) va Nikolas Stern (2006) yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy jihatlari, ayniqsa iqlim o'zgarishi ta'sirini kamaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratish borasidagi imkoniyatlariga urg'u berishadi. O'zbekistonda 2019-yildan beri "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi", "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, "Ekologik ta'lim konsepsiyasi", "Yashil maktab" va "Yashil bog'" kabi tashabbuslar orqali kompleks yondashuv shakllanmoqda. [3] Bu hujjatlar aholi, ayniqsa yoshlarning ekologik ongini oshirishni muhim ustuvorlik sifatida belgilangan. Shuningdek, ekologik madaniyatni targ'ib qilishda raqamli texnologiyalarning roli ortib bormoqda.

O'zbekiston tajribasini o'rganishda sifatli tahlil metodologiyasi tanlandi. Asosiy e'tibor 2017–2025 yillardagi hukumat qarorlari, ekologik qonunchilik, "Yashil makon" loyihasi, ekologik ta'lim dasturlari, xalqaro hisobotlar (OECD, UNDP, UNECE) va statistik ko'rsatkichlarga qaratildi. Metod sifatida kontent-analiz, vaziyatli tahlil (case-study), hamda komparativ (taqqoslovchi) tahlillar qo'llandi.

**NATIJALAR:** O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tishda bir qator ijobiy natijalarga erishmoqda. Jumladan, "Yashil makon" loyihasi doirasida 2021–2024 yillarda 400 milliondan ortiq daraxt va buta ekildi. Bu nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minladi, balki yangi ish o'rinlarini yaratdi va aholi salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.[4] Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish borasida 2023-yilda Quyosh va shamol elektr stansiyalari orqali 1,8 mlrd kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Bu esa respublika umumiy energiya balansining 10 foizidan ortig'ini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich yil sayin ortib bormoqda.[5] Shuningdek, maktab va oliy ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim sohasidagi darslar soni ko'paytirildi. Yoshlar orasida ekologik ongni shakllantirish maqsadida "Ekofest", "Ekosayl" va "Yashil darslar" kabi ommaviy tadbirlar o'tkazildi. Bu ekologik madaniyatning ommalashuviga xizmat qilmoqda. Shuningdek, 2023–2024-yillarda bir qator sanoat korxonalari tomonidan ekologik standartlarga muvofiqlikni ta'minlash yo'lida texnologik modernizatsiya ishlari olib borildi. Xususan, Navoiy, Angren va Olmaliq sanoat hududlarida



chiqindi gazlarni tozalash, suvni qayta ishlatish tizimlari joriy etildi. Bu esa sanoat ekologiyasini yaxshilash va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishda muhim rol o'ynadi.


Qishloq xo'jaligi sohasida ham ekologik yondashuvlar kuchaymoqda. Organik dehqonchilik, tomchilatib sug'orish texnologiyalari joriy etilayotgan hududlar soni ortmoqda. Masalan, 2024-yil yakunlariga ko'ra, 180 ming gektar yer maydonida suv tejovchi texnologiyalar qo'llanildi. Bu nafaqat suv resurslarini tejashga, balki hosildorlikni oshirishga ham xizmat qildi. Yana bir e'tiborga molik natija – ekologik innovatsiyalar bo'yicha startaplar va yoshlar loyihalarining soni ortib bormoqda. 2024-yil davomida “Yashil startap” tanlovida 300 dan ortiq loyiha ishtirok etdi, ularning aksariyati quyosh batareyalari, chiqindilardan energiya olish va ekologik monitoringga oid texnologiyalarni o'z ichiga olgan.

**MUHOKAMA:** O'zbekiston tajribasi ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish nafaqat ekologik samaradorlikni, balki iqtisodiy va ijtimoiy foyda ham keltiradi. Biroq mavjud muammolar ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Birinchidan, texnologik modernizatsiya va energiya samaradorligini oshirish uchun chet el investitsiyalariga va mahalliy innovatsiyalarga ko'proq imkon yaratish zarur. Ikkinchidan, yashil iqtisodiyot sohasida malakali kadrlar yetishmovchiligi ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Shuningdek, ekologik ongni shakllantirishda targ'ibot ishlari, ommaviy axborot vositalarining roli va ijtimoiy tarmoqlardagi eko-ta'lim kampaniyalari kengaytirilishi kerak. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ekologik ta'lim bolalikdan boshlanishi kerak, bu esa O'zbekiston ta'lim tizimi uchun muhim islohot yo'nalishi bo'lib qolmoqda. Hozirda muallif tomonidan ishlab chiqilayotgan “Eko-tarbiya” mobil ilovasi O'zbekistonda ekologik tarbiya va yashil turmush tarzini aholiga ommalashtirishga qaratilgan innovatsion loyiha hisoblanadi. Ilova foydalanuvchilarni kundalik ekologik odatlarga o'rgatadi, masalan: chiqindilarni ajratish, elektr va suvni tejash, daraxt ekish, qayta ishlanadigan mahsulotlardan foydalanish va boshqalar. Unda interaktiv topshiriqlar, ball tizimi orqali rag'batlantirish, eko-testlar va ekologik kalendar kabi funksiyalar bo'lishi rejalashtirilgan. Loyihaning prototipi ishlab chiqilgan bo'lib, 2025-yilda test sinovlari bosqichiga chiqishi rejalashtirilmoqda. Ushbu ilova, ayniqsa, maktab o'quvchilari, talaba-yoshlar va keng aholi qatlamlarining ekologik ongini oshirishda muhim vosita bo'lishi mumkin.

“Eko-tarbiya” ilovasi bo'yicha tahliliy jadval.

| Ko'rsatkich                        | Rejalashtirilgan funksiya yoki natija                                    | Maqsad kutilgan ta'sir                           |
|------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------|
| Maqsadli auditoriya shakllantirish | O'quvchilar, talabalar, keng aholi                                       | Ekologik ongni yoshligidan shakllantirish        |
| Asosiy funksiyalar                 | Eko-testlar, topshiriqlar, ball tizimi motivatsion bildirishnomalar      | O'rgatish+rag'batlantirish                       |
| Texnik imkoniyatlar                | Android/iOS, oflayn rejim, oddiy interfeys                               | Foydalanuvchilarga qulaylik yaratish             |
| Ta'limiy yondashuv                 | Gamifikatsiya(o'yin shaklidagi ta'lim), vizual materiallar               | Ta'sirchanlikni oshirish                         |
| Joriy etilish bosqichlari          | G'oya, dizayn, Prototip, test, ishga tushirish                           | Bosqichma-bosqich sifatini oshirish              |
| Rejalashtirilgan hamkorlar         | Maktab, universitetlar, Yoshlar ishlari agentligi                        | Keng auditoriyani qamrab olish                   |
| Ijtimoiy-psixologik ta'sirlar      | Ekologik odatlar shakllanishi, eko-ixtiyoriy guruxlarning paydo bo'lishi | Jamiyatda ekologik ongli qatlamning shakllanishi |



**XULOSA VA TAKLIFLAR:** Yashil iqtisodiyot — bu atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlarga barqaror hayot sharoitini ta'minlashga yo'naltirilgan taraqqiyot modeli hisoblanadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda muhim islohotlar olib borilmoqda. Xususan, 2025-yilning "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot" yili deb e'lon qilinishi mamlakat miqyosida ekologik ong, yashil texnologiyalar va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga e'tibor keskin oshganini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha aniq strategiyaga ega bo'lib, bu jarayon huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlar orqali amalga oshirilmoqda. Ekologik ong va ekologik madaniyat darajasi hali ham kerakli darajada emas, bu esa aholining ishtirokini cheklaydi. Raqamli texnologiyalar, ayniqsa mobil ilovalar orqali ekologik ta'lim samaradorligini oshirish imkoniyati mavjud. Yoshlar orasida ekologik tarbiya, eko-mahalla, eko-maktab kabi tashabbuslar real ijtimoiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin. Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Ekologik ta'limni barcha bosqichlarga integratsiya qilish - maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda ekologik ongni shakllantirishga yo'naltirilgan fanlar, modullar va loyihalar joriy etilishi zarur.

- "Eko-tarbiya" kabi raqamli mahsulotlar ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash - mobil ilovalar orqali bolalar, o'smirlar va yoshlar o'rtasida ekologik bilimlarni interaktiv va gamifikatsiyalashgan shaklda yetkazish zamonaviy yondashuv sifatida targ'ib qilinishi kerak.

- Ekologik faol fuqarolik tashabbuslarini rag'batlantirish - eko-volontyorlik, eko-klublar, ijtimoiy tarmoqlarda ekologik kontent yaratuvchilarni rag'batlantirish uchun mahalliy grantlar va musobaqalar tashkil etish tavsiya etiladi.

- Mahalliy va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish - BMT, UNDP, GEF kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda grantlar, texnik yordam va ekologik innovatsiyalarni O'zbekistonga olib kirish imkoniyatlari kengaytirilishi lozim.

- Ekologik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash - Yashil iqtisodiyotda kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash, masalan, qayta ishlash, qayta tiklanuvchi energiya, eko-qadoqlash sohalarida soliq imtiyozlari va subsidiyalar ajratish kerak.

- Ekologik madaniyat bo'yicha ommaviy axborot kampaniyalarini yo'lga qo'yish - Televizion dasturlar, ijtimoiy tarmoqlarda "eko-blogger"lar, animatsion kontent, milliy eko-axborot platformalar yaratish orqali keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish zarur.

- Yashil indikatorlar asosida baholash tizimini joriy etish - har bir hudud ekologik tozaligi, yashil hududlar ulushi, chiqindi qayta ishlash darajasi kabi ko'rsatkichlar asosida baholab borilishi kerak. Bu hokimliklar va mahalliy kengashlar faoliyatini ham sifatli monitoring qilishga xizmat qiladi.

- Ekologik tarbiya muassasalari uchun ilmiy-uslubiy markazlar tashkil etish - ekologik ta'limni metodik jihatdan ta'minlovchi, ilmiy asosdagi o'quv qo'llanmalar va resurslar ishlab chiqadigan muassasalarga ehtiyoj mavjud.


Mazkur takliflar amaliyotga tadbqiq etilsa, O'zbekistonda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi nafaqat siyosiy hujjatlarda, balki real hayotda ham chuqur ildiz otgan ijtimoiy hodisaga aylanishi mumkin. Shu bilan birga, ekologik madaniyat yuksalib, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish sur'ati keskin oshadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. UNEP (2011). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Nairobi: UNEP, 2011, - 8/15 b

2. World Bank. The World Bank Annual Report 2020: Supporting Countries in Unprecedented Times. 2020.

<https://www.worldbank.org/en/about/annual-report/covid-response>



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yildagi "2025-yil — Yashil iqtisodiyot va atrof muhitni asrash" yili deb e'lon qilinishi to'g'risidagi qarori <https://lex.uz/docs/-7369703>
4. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hisobotlari (2022–2024).
5. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi (2024). Rasmiy ma'lumotlar.
7. Gasimov, Z. Green Economy in Central Asia: Trends and Challenges. Central Asia Economic Review. 2020 136/b
8. Yusupova, O. Yashil iqtisodiyotning mohiyati va uning asosiy xususiyatlari. Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar, 2023, №3(11), 15-22-b.
9. Yormonqulova, N. "Yashil iqtisodiyotga o'tishning ahamiyati va O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi." Qo'qon universiteti xabarnomasi, 2023, №11(11), 25–30-b
10. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)